

**ADIB AVLONIY QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ASARIDA
XOTIN-QIZLAR MASALALARINING TALQINI**

Sobirov Zafar Karimovich

Amrullayeva Mahliyo Abdurahmonovna

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi 2-sonli

Toshkent akademik litsey o‘qituvchisi

Tangriyeva Dilovar Anvarjonovna

Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti

Nemis filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada Turkiston jadidlarining xotin-qizlar masalalari haqidagi ma’lumotlar tahlil qilinadi. Ularning xotin-qizlar xuquqini poymol qilishga barham berishni, oilaning xuquqiy asoslarini yangilashni, ularni ta’lim va ma’rifat jarayonlarida faol qatnashishga jalb qilishni yoqlab chiqqanliklari tarixiy manbalar asosida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari, vatan, 2018 yil 2 fevraldagi PF-5325 – sonli, Zaynab roziyalloxu anxo, Kumushbibi, Otabek, “taloq xati”...*

Ma’lumki, millat, jamiyat va davlat taqdiri ma’lum darajada xotinqizlar va oilaning ma’naviy sog‘lomligiga bog‘liqdir. Jumladan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridagi qahramonlar timsoli orqali o‘zbek ayolining turmush tarzi, urf-odatlar talqini o‘rganiladi. Mustaqil rivojlanish yillarida Vatanimiz tarixini yoritishga bag‘ishlangan salmoqli ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Shunga qaramasdan, yurtimiz tarixiga oid manbalarni qaytadan xolisona ilmiy tahlil etishni va holatga qaytadan kontseptual baho berishni talab qiluvchi anchagina sahifalar mavjud. Ular orasida jadidlarning yoshlar va xotin - qizlar masalalari bo'yicha g'oyalarning O'zbekistonning barkamol yosh avlodni tarbiyalash va jamiyatda xotin-qizlar rolini kuchaytirishga qaratilgan tub o'zgarishlar amaliyoti bilan ko'p jihatdan xamohangligi bilan belgilanadi.

Yurtimizda ham doimiy ravishda xotin-qizlar masalasi dolzarb bo‘lib kelgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 2 fevraldagi PF-5325 – sonli "Xotin

qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni yurtimizda bu borada olib borilayotgan ishlardan biridir. O‘tgan qisqa davrda ushbu Farmon doirasida 2 ta qaror, hukumatimizning 6 ta qarori va 4 ta farmoyishi qabul qilindi. Kuni kecha “8 – mart Xalqaro xotin-qizlar kuni”ga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali marosimdagi nutqlarida quyidagi so‘zlarni ta’kidlab o‘tdilar: “Ma’lumki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Lekin Siz, yurtimiz ayol -

qizlarining barcha sohalardagi samarali mehnatingiz, farzandlar tarbiyasi, oila hayotidagi ulkan xizmatlaringizni hisobga olib aytadigan bo'lsak, jamiyatdagi o'ringiz, yurtimizdaerishayotgan yutuqlardagi beqiyos hissangizni hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi".

Jadidlar g'oyasi- Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohang. Bu haqda Shavkat Mirziyoyev 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida aytib o'tdi. „Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jaded bobolarimiz kabi g'arb ilmfan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur"- dedi prezident.

Davlat rahbarining qayd etishicha, yaqinda Toshkentda o'tkazilgan „Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari “ mavzusidagi konferensiya jahon ilmfan va madaniy jamoatchiligi o'ratsida katta qiziqish va e'tibor uyg'otdi. Bu ishlarni yanada kengaytirish va yangi bosqichga ko'tarish maqsadida prezident qarori qabul qilinadi.

„Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo`qmi xalqimiz jaded bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir"- dedi davlatimiz rahbari.

Tarixdan ma'lumki, barcha davrlarda ta'lim - tarbiya jarayonida xotin-qizlarning o'rni va ahamiyati, ularning jamiyat hayotidagi keskin o'zgarishlarni amalga oshirish masalasiga juda katta ahamiyat berilgan. Pedagog olimlarimiz jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan shakllangan munosabatni o'zgartirmasdan ularning oila va jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini oshirmasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uni tizimli islohotlashtirib bo'lmaydi deb hisoblaganlar. Ular xotin-qizlar xuquqini poymol qilishga barham berishni, oilaning xuquqiy asoslarini yangilashni, ularni ta'lim va ma'rifat jarayonlarida faol qatnashishga jalb qilishni yoqlab chiqqanlar, chunki pirovardida millat, jamiyat va davlat taqdiri ma'lum darajada xotin-qizlar va oilaning ma'naviy sog'lomligiga bog'liqdir.

Adabiyotimiz tarixiga nazar solsak, yuqoridagi mavzular o'zbek adiblari va shoirlari tomonidan ular yaratgan noyob asarlarda keng yoritilgan. Mumtoz adabiyotimiz mavzulari g'oyasi, asosan sharqona go'zal odob – axloqni, oilaning muqaddasligini, onalarimizning va ayollarimizning jamiyatdagi o'rnini yuqori baholab ularni ulug'lashgan. Umuman asrlar davomida bizda yaratilgan mumtoz adabiyot ana shunday g'oyalar bilan sug'orilgan. Bu g'oyalar insonning komil yetuk bo'lib shakllanishiga xizmat qilgan. Jumladan, XX asrda yashab ijod etgan, o'zbek romanchiligiga asos solgan buyuk adibimiz Abdulla Qodiriyning asarlarida ayollarimizning taxsinga sazovor o'zbekona fazilatlarini mahorat bilan tasvirlangan. Ta'lim jarayonida ilm berayotgan

talabalarimizga ibrat sifatida A.Qodiriyning asarlaridan parchalar berib borilsa (mavzuga bog'langan holatda) ta'lim jarayoni yanada mazmunli bo'ladi.

O'zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriy ijodining ummoniga boqar ekanmiz, o'zbek xalqining oilasiga, ayoliga nisbatan munosabatlarida bir necha asrlik muomala madaniyatini, urf-odatlarimizni ko'ramiz. Adibning "O'tkan kunlar" asari shular jumlasidandir. Mazkur klassik romanni mutolaa qilib quyidagi fikrlarga kelish mumkin. Asarda shunday xayratlanarli holatlar tasvirlangan bo'lib, bunaqa muhabbatni, oilaga, turmush o'rtog'iga hurmatni faqat o'zbek va qardosh xalqlar munosabatida ko'rish mumkin. Kumushbibi Otabekning ota-onasi qistovi bilan ikkinchi marta uylanishiga o'z roziligini beradi. Bu ham yetmagandek turmush o'rtog'idan "taloq xati" oladi. Cheksiz iztirob chekadi. Ichki iztirob, qalb kurashiga qaramasdan Otabekka bo'lgan muhabbatini, sadoqatini oxirigacha saqlab qoladi ...

Holatga hozirgi zamon nazdida qaraydigan bo'lsak, nainki Yevropa va Amerika aholisi hayoti haqida asar yozilsa, balki bugungi turmush tarzimizni oladigan bo'lsak qaysi ayol kundoshlikka rozilik beradi. Qanday ayol ustiga ustak taloq xati olganda ham chidaydi. Chunki azal - azaldan buvi - momolarimizdan ayol kishi turmushning past - balandliklariga chidab yashamog'i darkor degan gaplar biz qiz - ayollarga uqtiribkelingan. Kumushbibi esa ana shunday islomiy muhitda katta bo'lgan. Undagi bu xususiyatlar Otabekka bo'lgan sadoqatini, oila muqaddasligi kabi xususiyatlar, andisha, or - nomus kuchliligining belgisidir. Bu xususiyat o'sha davr ayolining matonati, hayosi va shu bilan birga oila, urf-odatlar mujassamligi timsolidir.

Endi Zaynab timsoliga nazar solamiz. E'tibor bering, o'sha davrda yashagan qizlar erksiz, huquqsiz, zabun va ularning aksariyati hatto bunga rozi edilar. O'z huquqlarini himoya qilish, kimdandir haqini talab qilish ular uchun yot edi. Ular o'z qismatlaridan baxt qidirardilar. Gohida topardilar ham. Serfarzand Turkiston oilalarining aksariyatida o'sha vaqtlarda yangi kiyim kiyishni xayoliga keltirmaydigan, opasiga tor kelib qolgan eski ko'ylakni sovg'a o'rnida qabul qiladiganlar ko'pchilikni tashkil qilgan. Ular oiladayoq bir narsaga - mutelikka o'rganib boraverishgan. Ammo bu andishaning oti qo'rqqoq degani emas-da. Umuman, biz Zaynab timsolida bir umr itoatgo'ylikda yashagan, kattalarning "yaxshi qiz bo'l" degan nasihatini "haddan ortiq tushunib yuborgan" va oxir-oqibat bu dunyoda borligim ham kimgadir malol kelmayaptimikan, degan hadik bilan qimtinib yashayotgan odamlarni ko'ramiz.

Buni ko'ringki, Zaynabning har jihatdan ko'ngli o'ksik. U yetim vanogiron edi. Nega endi, otasi yoki onasi yo'qlarni "yetim" deb atashmumkinu, sevgilisi yo'q odamni yetim deb bo'lmasin?! Kesakdan olov chiqdi, deyishadi istehzo aralash.

E'tibor bergan bo'lsangiz, Zaynab dastlab o'ziga ishlatilayotgan kamsitish va tahqirlashlarni qattiq olmaydi. Mushtipar ayol bularningbariga sabot bilan chidaydi.

Qalbida m uhabbat degan muqaddas tuyg‘u uyg‘onmaganida, bir umr “yaxshi qiz” bo‘lib o‘tib ketishi ham mumkin edi. Lekin bir muddat o‘zimizni Zaynabning – Toshkentdek shahri azimning eng suluv qizlaridan biri, ne-ne xonadonlardan kelgan sovchilar yetisha olmagan, Hasanaliga aravani qo‘shirib, “marg‘ilonlik andi”dan o‘g‘lini sovutar darajada chiroyli kelin izlagan O‘zbek oyimning nazariga tushgan, sodda va samimiy qizning o‘rniga qo‘yib ko‘raylik - chi. Agar Zaynab insoniy, ayoliy his-tuyg‘udan bebahra, qotillik uchun yaratilgan bir kimsa bo‘lsa, nima uchun majnuna – jinni bo‘lib qoldi. Shu o‘rinda bir narsa xaqida fikr yuritib qoldik. Abdulla Qodiriy islom dinini puxta egallagan inson bo‘lgan. Islom tarixidan bizga ma’lumki, payg‘ambarimiz Muxammad s.a.v ning 3 nafar o‘g‘il va 4 nafar qiz farzandlari bo‘lgan.

Qiz farzandlaridan birining ismi Zaynab roziyallohu anxo bo‘lgan. Ko‘pchilik olimlar: “Zaynab Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning katta qizlari bo‘lgan” deb ta’kidlashadi. Yozuvchi bejizga bu mushtipar qaxramonga Zaynab ismini bermaganlar va hattoki uni zimdan hurmat qilganlar.

Abdulla Qodiriy xotin-qizlarning insoniy fazilatlarini ko‘rsatish bilan birga, ularning muhitidagi insonga xos bo‘lmagan yaramas nuqsonlarni, dag‘allik , haqsizlik, xullas, hayotda tez-tez uchrab turadigan salbiy hodisalarni xotin-qizlar yo‘lidan olib tashlashni tavsiya qilgandi. Ayollarni ijtimoiy hayotdan ajratish mumkin emas, jamiyatda yashagan kishining hayotdan uzilib qolishi tabiat qonuniga zid, shaxs - ayollar hamisha o‘z muhiti , el-yurti taqdiri bilangina emas, shu bilan birga jahon , butun insoniyat jamiyati taqdiri bilan ham bog‘lanishi zarur, degan xulosa chiqadi. Adib Abdulla Qodiriy fikricha, ayollar ma’rifatga , jamiyat ishida faol ishtirok etishga, go‘zalikka, madaniyatga, odobli va yuqori axloqli bo‘lishga intilishlari kerakligi ta’kidlaydi.

Insoniyat tarixida ayolning o‘rni beqiyos va oila jamiyatning asosiy poydevori ekanligini jadidlar o‘z asar va maqolalarida asoslab berganlar. Bu masalani ular umuminsoniy , umummilliy darajagacha ko‘tarib, sog‘lom ma’rifatli oila va u voyaga yetkazadigan har tomonlama yetuk avlodning, komil insonning shu xalq, millatning rivoji uchun muhim omil bo‘lganligini tushuntirib berishga intilganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali marosimdagi nutqi, Xalq so‘zi, 2020 yil 7 mart.
- 2.Milovidova E. Xotin - qizlar masalasi va xotin - qizlar harakati. Xrestomatiya. Gosizdat, 1929.
- 3.Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Sharq”, 2014.
- 4.Fattoyev M. Atoqli pedagoglarimiz, Toshkent, O‘qituvchi, 1988.
- 5.muslim.uz.

4. Tayirova, S., & Tangriyeva, D. . (2024). STEAM YONDASHUVLARI VA AQLLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI. Академические исследования в современной науке, 3(8), 15–17. извлечено от <https://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/13298>
5. Тангриева Д. А. В ПРОЦЕССЕ УРОКОВ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВУЗАХ ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА И ЦЕННОСТИ //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 46. – С. 428-430.
6. Amrullayeva M., Tangriyeva D. DIFFICULTIES IN LITERARY TRANSLATION FROM ENGLISH TO GERMAN //BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE FOR A SUSTAINABLE FUTURE. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 196-201.
7. Amrullayeva M., Tangriyeva D. DIE ROLLE VON ALTER UND SOZIALEM STATUS IN DER RESPEKTKATEGORIE: EIN VERGLEICH ZWISCHEN DER DEUTSCHEN UND DER USBEKISCHEN SPRACHE //BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE FOR A SUSTAINABLE FUTURE. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 186-190.
8. Amrullayeva M., Tangriyeva D. ISSUES IN LITERARY POEMS FROM GERMAN TO ENGLISH //BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE FOR A SUSTAINABLE FUTURE. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 180-185.
9. Amrullayeva M., Tangriyeva D. SPRACHLICHE DISTANZ UND NÄHE IM DEUTSCHEN UND USBEKISCHEN: AUSDRUCK VON RESPEKT DURCH FORMELLE UND INFORMELLE KOMMUNIKATION //BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE FOR A SUSTAINABLE FUTURE. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 191-195.
10. Tayirova S., Tangriyeva D. DIE ROLLE DER NONVERBALEN KOMMUNIKATION IM „DAF“-UNTERRICHT (DEUTSCH ALS FREMDSPRACHE) //Development and innovations in science. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 148-152.
11. Anvarjonovna T. D. The Role of Non-Verbal Communication in “Daf” Lessons (German as a Foreign Language) //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 416-419.
12. Khudoev S. The riddle genre in world literature and the history of research on it //International journal of language learning and applied linguistics. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 13-15.
13. Худоев С. Topishmoq matning sintaktik xususiyatlari (ozbek-nemis topishmoqlari misolida) Annotatsi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
14. Худоев С. Жаҳон фольклорида топишмоқ жанри ва унинг ўрганилиш тарихи //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 26. – №. 26.
15. Khudoev S. DER GERBRAUCH DER STILMITTEL IN RÄTSELN (AM BEISPIEL USBEKISCHER UND DEUTSCHER RÄTSEL) //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 950-955.

16. Samandar K. CLASSIFICATION OF UZBEK PUZZLES ACCORDING TO THE PERIOD OF CREATION //SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY. – 2024. – Т. 2. – №. 17. – С. 169-174.

17. Ruziev Y., Khudoev S., Abdulxayrov D. Indirect speech in Uzbek, Russian and German languages and its comparative analysis //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 538. – С. 05039.

18. Khudoev S. DIE VORTEILE VON RÄTSELN IN DER KINDERERZIEHUNG //Academic research in educational sciences. – 2024. – Т. 5. – №. CSPU Conference 1. – С. 882-886.

19. Samatovich X. S. O 'ZBEK TOPISHMOQLARINING YARATILISH DAVRIGA KO 'RA TASNIFLANISHI //" GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROS

Literaturverzeichnis:

20. Tayirova, S., & Tangriyeva, D. . (2024). STEAM YONDASHUVLARI VA AQLLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI. Академические исследования в современной науке, 3(8), 15–17. извлечено от <https://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/13298>

21. Тангриева Д. А. В ПРОЦЕССЕ УРОКОВ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВУЗАХ ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА И ЦЕННОСТИ //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 46. – С. 428-430.

22. Amrullayeva M., Tangriyeva D. DIFFICULTIES IN LITERARY TRANSLATION FROM ENGLISH TO GERMAN //BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE FOR A SUSTAINABLE FUTURE. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 196-201.

23. Amrullayeva M., Tangriyeva D. DIE ROLLE VON ALTER UND SOZIALEM STATUS IN DER RESPEKTKATEGORIE: EIN VERGLEICH ZWISCHEN DER DEUTSCHEN UND DER USBEKISCHEN SPRACHE //BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE FOR A SUSTAINABLE FUTURE. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 186-190.

24. Amrullayeva M., Tangriyeva D. ISSUES IN LITERARY POEMS FROM GERMAN TO ENGLISH //BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE FOR A SUSTAINABLE FUTURE. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 180-185.

25. Amrullayeva M., Tangriyeva D. SPRACHLICHE DISTANZ UND NÄHE IM DEUTSCHEN UND USBEKISCHEN: AUSDRUCK VON RESPEKT DURCH FORMELLE UND INFORMELLE KOMMUNIKATION //BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE FOR A SUSTAINABLE FUTURE. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 191-195.

26. Tayirova S., Tangriyeva D. DIE ROLLE DER NONVERBALEN KOMMUNIKATION IM „DAF“-UNTERRICHT (DEUTSCH ALS FREMDSPRACHE) //Development and innovations in science. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 148-152.

27. Anvarjonovna T. D. The Role of Non-Verbal Communication in “Daf” Lessons (German as a Foreign Language) // *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 416-419.
28. Khudoev S. The riddle genre in world literature and the history of research on it // *International journal of language learning and applied linguistics*. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 13-15.
29. Худоев С. Topishmoq matning sintaktik xususiyatlari (ozbek-nemis topishmoqlari misolida) Annotatsi // *Центр научных публикаций* (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
30. Худоев С. Жаҳон фольклорида топишмоқ жанри ва унинг ўрганилиш тарихи // *Центр научных публикаций* (buxdu. uz). – 2022. – Т. 26. – №. 26.
31. Ruziev Y., Khudoev S., Abdulxayrov D. Indirect speech in Uzbek, Russian and German languages and its comparative analysis // *E3S Web of Conferences*. – EDP Sciences, 2024. – Т. 538. – С. 05039.
32. Khudoev S. DIE VORTEILE VON RÄTSELN IN DER KINDERERZIEHUNG // *Academic research in educational sciences*. – 2024. – Т. 5. – №. CSPU Conference 1. – С. 882-886.
33. Samatovich X. S. O ‘ZBEK TOPISHMOQLARINING YARATILISH DAVRIGA KO ‘RA TASNIFLANISHI //” GERMANY” MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROS
34. Karimova D. VARIATION AND INVARIANCE OF MEANS OF EXPRESSION // *American Journal of Innovation in Science Research and Development*. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 71-77.
35. Karimova D. VARIATION AND INVARIANCE OF MEANS OF EXPRESSION // *American Journal of Innovation in Science Research and Development*. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 71-77.
36. Halimovna, KD „Variabilität und Invariabilität in usbekischen Übersetzungen der Märchen der Brüder Grimm.“ *International Journal of Language Learning and Applied Linguistics*, 2 (3), 83–88. Abgerufen von <http://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/1240> (2023). Stewart, D. (2014). Using social media for learning and teaching in higher education. *Innovations in Education and Teaching International*, 51(1), 19-26. <https://doi.org/10.1080/14703297.2013.861613>
37. Sharopovna, B. R. (2024). *Gidronim Tarkibli Iboralarda Metaforizatsiya*. *Miasto Przyszłości*, 53, 77-80.
38. Sharopovna, B. R. (2024). *Nemis Va O ‘Zbek Hidropoetonimlarining Semantik Tasnifoti*. *Miasto Przyszłości*, 54, 1016-1019.
39. Bozorova, R. S. (2024). METAPHORIZATION IN PHRASES CONTAINING HYDRONYM. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(12), 352-355.
40. Bozorova, R. (2023). *YOHANN VOLFGANG GYOTE ASARLARIDA HIDROPOETONIMLAR O‘RNI*. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 43(43).

41. Bozorova, R. (2023). EINE VERGLEICHENDE STUDIE ÜBER HYDROPOETHONYM. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).

42. Bozorova, R. (2023). GIDROPOETONIMLARNING ONOMASTIK BIRLIKLAR TIZIMIDAGI O 'RNI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 41(41).

43. Abdikarimovich B. O. The views of Jalaliddin Rumi //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 12. – С. 319-322.

44. Abdikarimovich, Mr B. O. "The True Values of the Mavlono Jaloliddin Muhammad Rumi's Philosophy in Russian Translations." International Journal on Orange Technologies, vol. 2, no. 12, 31 Dec. 2020, pp. 68-71, doi:10.31149/ijot.v2i12.1091.

